HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHIYATIDAN FOYDALANISH ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Malikov Ulug'bek Xoldarboyevich
Ipoteka bank ATIB Namangan viloyat filiali,
Ish haqqi loyihalari bo'yicha mijozlar bilan ishlash menejeri,
E-mail: ulugbek04091988@gmail.com

Qabul qilindi: 19.10.2026
Ko'rib chiqildi: 19.10.2026
Tasdiqlandi: 20.10.2026


Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy salohiyat, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hududiy ixtisoslashuv, investitsiya, infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, bandlik, rivojlanish strategiyasi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirish strategiyasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Hududlarning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsion imkoniyatlari va mahalliy bozor talabidan foydalanish orqali tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv, raqamli texnologiyalar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va davlat-xususiy sektor hamkorligining ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijasida hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga oluvchi strategik yondashuvlar va kichik biznes samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritishi, bozor talabiga tez moslashishi, mahalliy resurslardan samarali foydalanishi hamda yangi iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Shu sababli hududlarning iqtisodiy salohiyatini aniqlash va undan oqilona foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Har bir hudud o'zining tabiiy-iqtisodiy sharoiti, mehnat resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, transport infratuzilmasi, investitsion jozibadorligi va iste'mol bozori bilan farqlanadi. Mazkur xususiyatlarni hisobga olmasdan barcha hududlar uchun bir xil rivojlanish strategiyasini qo'llash kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi mumkin. Shu bois hududiy ixtisoslashuvni rivojlantirish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash, xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish va tadbirkorlik subyektlarining o'zaro kooperatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Kichik biznesni

rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish ham muhim omillar hisoblanadi.

1-rasm. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik modeli



1. Boshlang‘ich tahlil. Dastlabki bosqichda tanlab olingan hududning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilidani. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlarga asosan hududdagi iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hajmi o‘rganiladi. Shuningdek, aholi bandligi ham e’tibordan chetda qoldirilmay, jami band aholining qancha qismi

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandligi ko‘rsatkilari olinadi. Shu bilan birga hududdagi tadbirkorlik su’bektlarisoni va salmog‘i tahlil qilinadi. Shuningdek, yuqoridagi boblarda to‘xtalib o‘tilgani kabi tanlangan hudud tarkibidagi tumanlar va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faoliyati o‘rganiladi.

2. Omillarni aniqlash. Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni baholash hududdagi omillarning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq hisoblanadi.

- Moliyaviy resurslarga yetishimlilik omili hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ajratilayotgan kreditlarning hajmi hamda umumiy kredit fondiga nisbatan ulushi, o‘rtacha har bir kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektiga to‘g‘ri keladigan kredit miqdorlari, moliyaviy xizmatlardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining foydalanish darajasi, kreditlar tarkibida imtiyozli kreditlarning ulushi kabi ko‘rsatkilarni tahlil qilish orqali shakllantiriladi. –

- Soliq va bojxona ko‘rsatkichlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorliklik uchun qo‘llanayotgan soliq yuki darajalari, davlat tomonidan berilgan soliq imtiyozlaridan tadbirkorlarning foydalanish ulushlari, soliq hisobotlarini shakllantirish va topshirish uchun sarflanadigan o‘rtacha vaqt sarfi, bojxona rasmiylashtiruvi muddatlari, bojxona bilan bevosita ishlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini tahlil qilish bilan aniqlanadi.

- Infratuzilma ko‘rsatkilarida asosan yer, kommunikatsion infratuzilmalar va logistika xizmatlari bo‘yicha ma’lumotlarning tahlili keltiriladi. Bunda e’tiborni tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan yer maydonlari soni (yoki tahlil maqsadiga ko‘ra hududi), hududdagi mavjud erkin zonalarning hamda sanoat parklarining tashkil etilganligi, elektr va gaz ta’minoti bilan ta’minlangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soni hamda ularning umumiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sonidagi ulushi, logistika markazlarining mavjudligi hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatlari, jumladan, transport harajatlarining o‘rtacha qiymatlariniga qaratiladi.

- Kadrlar salohiyati ko‘rsatkilari tahlilida mavjud kadrlarning kasbiy yoki hunar bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarga egalik darajasi, tadbirkorlik bo‘yicha maxsus kurslarni tamomlanagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalari, kadrlar almashinuvi va qo‘nimsizligi holati, kadrlarning demografik ko‘rsatkichlari tahlili kabi ma’lumotlar o‘rganiladi.

- Raqamlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning elektron davlat xizmatlaridani foydalanish ko‘rsatkichlari, raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi, onlayn savdo va boshqa xizmat turlarining tashkil etilganligi, buxgalteriya va CRM tizimlaridan foydalanish ulushlari tahlil qilinadi.

- Mahalliy hokimiyat faoliyati ko‘rsatkichlarida hududlardagi hokimliklar tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga doir murojaatlarning ko‘rib chiqish muddatlari va ularning masalalariga yechim topilishi holatlari, mahalliy hokimlik tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qo‘llab-quvvatlanishi,

tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotlar, hokimlik tomonidan tadbirkorlik faolitlari uchun yer maydonlarining ajratilishi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

3. Statistik ko‘rsatkichlarni baholash.

- Ushbu bosqichda o‘rganilayotgan hududda kichik biznes va xususiy tadbirorlik bo‘yicha statistik ma’lumotlarning yuritilishi, ma’lumotlar hududlar kesimida to‘liq qamrab olinganligi, vaqt qatorlari uzluksizligining kamida 3-5 yil oraliqda mavjudligi, ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash imkoniyatlari mavjudligi inobatga olinadi. Agarda statistik ma’lumotlar yetarli emas deb topilsa, strategiyani ishlab chiqish jarayoni qayta ko‘rib chiqiladi. Agarda ma’lumotlar yetarli deb topilsa, keyingi bosqichga o‘tiladi.

4. Vazn koeffitsentlarini belgilash

- Ushbu bosqichda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ularni ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarning strategik ahamiyati aniqlanadi. Vazn koeffitsiyentlarini belgilashdan maqsad — har bir ko‘rsatkichning umumiy natijaga qo‘shayotgan hissasini hisobga olish orqali hududlarni xolis va asosli baholashni ta’minlashdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Bunda hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsion imkoniyatlari va bozor talabini kompleks baholash asosida rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash lozim. Hududiy xususiyatlarga mos strategiyaning ishlab chiqilishi mavjud resurslardan oqilona foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Porter, M. E. On Competition. Updated and Expanded Edition. Boston: Harvard Business Review Press, 2008.
2. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
3. OECD. OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjati.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga oid rasmiy statistik ma’lumotlar. Rasmiy sayt: https://stat.uz/